

QURITISHGA MOS URUG'SIZ UZUM NAVLARINING AGROBIOLOGIK
XUSUSIYATLARI

Begmatov Furqatjon Rahmatjon o'g'li

Oziq-ovqat texnologiyasi va muhandisligi xalqaro instituti

Soyibjonova Mag'zuna Komiljon qizi

Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar institute

Abstract: *This article presents the results of research on studying the agrobiological characteristics of seedless grape varieties suitable for drying. The research results indicate that the agrobiological characteristics of the selected seedless grape varieties were analyzed. Scientifically grounded conclusions were drawn as a result of the research.*

Keywords: *Grape, yield, autumn and winter varieties, drying, humidity, flowering, bud.*

Аннотация: *В данной статье изложены результаты исследований по изучению агробиологических особенностей бессемянных сортов винограда, пригодных для сушки. Результаты исследований показывают, что были проанализированы агробиологические особенности отобранных бессемянных сортов винограда. В результате исследования были сформированы научно обоснованные выводы.*

Ключевые слова: *Виноград, урожайность, осенние и зимние сорта, сушка, влажность, цветение, почка.*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada quritishga mos bo'lgan urug'siz uzum navlarining agrobiologik xususiyatlarini o'rganish bo'yicha tadqiqotlar natijalari bayon etilgan. Tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatadiki, tanlab olingan urug'siz uzum navlarining agrobiologik xususiyatlari tahlil qilingan. Tadqiqot natijasida ilmiy asoslangan xulosalar hosil qilingan.*

Kalit so'zlar: *Uzum, hosildorlik, kuzgi va qishki navlar, quritish, namlik, gullash, kurtak.*

Uzumchilik tarmog'ida urug'siz navlar alohida ahamiyatga ega bo'lib, ularning quritishga yaroqliligi, ekologik sharoitga moslashuvchanligi va agrobiologik xususiyatlari yuqori baholanadi¹.

Urug'siz uzumdan olinadigan quritilgan mahsulot - mayiz mahalliy va tashqi bozorda yuqori talabga ega bo'lgan qimmatbaho qishloq xo'jaligi mahsulotlaridan hisoblanadi².

Shu bois, rivojlanish fazalari, o'sish dinamikasi va hosildorlik imkoniyatlarini har tomonlama o'rganish, xususan, quritishga optimal mos navlarni aniqlash dolzarb masalalardan biridir³.

Fenologik kuzatuvlar asosida navlarning kurtak paydo bo'lishidan to'liq yetilishgacha bo'lgan davri, aktiv harorat yig'indisi hamda rivojlanish tezligi aniqlanadi⁴. Bu esa har bir mintaqada quritishga mos, yuqori transportabellikka ega va sifatli mahsulot beradigan navlarni tavsiya qilish imkonini beradi⁵.

Andijon viloyati sharoitida urug'siz uzum navlarining agrobiologik xususiyatlarini o'rganish, ularning fenologik fazalari, o'sish kuchi va hosildorlik ko'rsatkichlari bo'yicha taqqoslama tahlil olib borish mazkur tadqiqotning asosiy maqsadini tashkil etadi⁶.

Tadqiqot natijalari navlarning quritish uchun eng maqbul rivojlanish bosqichlarini aniqlash, ularning tezpishar, o'rtapishar va kechpisharlik xususiyatlarini baholash hamda mintaq uchun iqtisodiy jihatdan samarali navlar assortimentini shakllantirishda amaliy ahamiyatga ega.

Tadqiqotning maqsadi va muayyan masalalari.

Andijon viloyatida yetishtirilgan urug'siz uzum navlarini o'simlikning vegetatsion davri davomiyligi navi, yetishtirish hududi va yil davomida ob-havo sharoitining xususiyatidan kelib chiqqan holda mos navlarni tavsiya qilishdan iborat.

Material va metodlar.

Izlanishlar uchun uzumning "Kishmish Белый", "Kishmish Botir", "Kishmish Розовый", "Kishmish Sogdiana", "Kishmish Чёрный" kabi urug'siz navlari tanlab olindi.

Tadqiqotni olib borish uslubi quyidagicha:

- Andijon viloyati sharoitida o'rganilgan quritishga mo'ljallangan urug'siz uzum navlarini rivojlanishining fenologik bosqichlari bo'yicha tadqiqotlar olib borildi¹⁰.
- Quritishga mo'ljallangan urug'siz uzum navlarining o'sish kuchi va novdalarning o'sish darajasi bo'yicha tajribalar olib borildi¹¹.
- Tadqiqotlar natijasida quritishga mo'ljallangan urug'siz uzumning qaysi pishish darajasida quritish uchun uzish bo'yicha xulosalar olish bo'yicha izlanishlar olib borildi¹².

Tadqiqot natijasi va muhokamasi

Tadqiqotlar Andijon viloyati Buloqboshi tumani "Do'lanalik bog'bon" fermer xo'jaligidagi tokzorlar hamda uzumni quritish maydonida 2020-2022 yillar davomida olib borildi¹³. Dastlab, quritishga mo'ljallangan urug'siz uzum navlarini rivojlanishining fenologik bosqichlari tahlil qilindi (1-jadvalga qarang).

1-jadval. Quritishga mo'ljallangan urug'siz uzum navlarini rivojlanishining fenologik bosqichlari (2020-2022 yy).

Navlar	Feno fazalarning boshlanish sanalari							
	Dastlabki kurtaklarning paydo bo'lishi	Gullash		Pishish (donalar)	Yetilish	Pishish (bosh)	Kurtak paydo bo'lishida to yetilgunigacha davomiylik (kun)	Faol harorat yig'indisi
		Boshlanishi	Tugashi					
Кишмиш Ботир	16. 04	6.06	13.06	13.08	18.09	4.08	155	3011

Кишмиш Розовый	11. 04	4.06	10.06	08.08	16.09	5.08	158	3069
Кишмиш Чёрный	14. 04	5.06	10.06	12.08	20.09	5.08	159	3088
Кишмиш Согдиана	13.04	4.06	11.06	10.08	17.09	5.08	157	3045
Кишмиш Белый	14. 04	4.06	11.06	9.08	16.09	5.08	155	3015

Berilgan ma'lumotlardan ko'rinib turganidek, rivojlanish bosqichlarining boshlanishiga ko'ra, o'rganilgan navlar bir-biridan kam farq qiladi¹⁶. Barcha o'rganilgan navlarda sharbat harakati aprel oyining boshlarida 1-2 kunlik navlar o'rtasidagi farq bilan sodir bo'ladi¹⁷. Bunda "Kishmish Розовый" navida - 11 aprel, "Kishmish Sogdiana"da - 13 aprel, "Kishmish Белый" va "Kishmish.

Чёрный" navlarida - 14 aprel, "Kishmish Botir" - 16 aprelda boshlandi.

"Kishmish Розовый" navida gullash 3 iyundan, "Kishmish Розовый", "Kishmish Белый" va "Kishmish Sogdiana" navlarida 4 iyundan, "Kishmish Чёрный" navida 5 iyundan va "Kishmish Botir" navining 6 iyundan boshlanadi¹⁹. Fazaning davomiyligi 5-8 kun davom etdi.

Nav	Poyadagi novdalar soni	Novda diametri, mm	Novda uzunligi, cm		Poya o'sishi, cm		Novda o'sishi, %
			Umumiy	O'sgan qismi	umumiy	O'sgan qismi	
Кишмиш Ботир	36 ±1	6,3±0,5	122,5±2,5	86,3±0,9	4410,0±3,5	3106,8±2,5	70,4
Кишмиш Розовый	43±2	6,7±0,6	160,6±4,5	131,8±1,5	6905,8±4,5	5667,4±4,5	82,1
Кишмиш Чёрный	46±3	6,9±0,7	154,4±3,5	126,7±1,3	7102,4±5,5	5828,2±4,5	82,1
Кишмиш	34±1	6,8±0,6	159,4±3,5	128,2±1,3	5419,6±4,5	4358,8±3,5	80,4

Uzum donalarining nisbatan ertaroq pishishi "Kishmish Розовый" navida namoyon bo'ldi - 8 avgust. Undan keyin 9 avgustdan 10-13 avgust kunlarida "Kishmish Sogdiana", "Kishmish Чёрный" va "Kishmish Botir" navlari pisha boshladi²¹. Dastlab "Kishmish Чёрный" navi 20 sentyabrdan to'liq tovarbop bo'lib yetiladi²². "Kishmish Розовый", "Kishmish Белый" va "Kishmish Sogdiana" navlari esa 16-18 sentyabrda iste'molbop bo'lib yetiladi.

"Kishmish Botir" va "Kishmish Белый" navlarida kurtak chiqarishdan to'liq yetilishgacha bo'lgan davrning davomiyligi 155 kun, "Kishmish Розовый" va "Kishmish Sogdiana" navlarida - 157 kun, "Kishmish Розовый" - 158 kun,

"Kishmish Чёрный" - 159 kunni tashkil etdi²⁴. O'rganilgan navlar bo'yicha tajribalar olib borish jarayonida butun vegetatsiya davrida harorat jamlanmasi taxminan 3011-3088 °C ni tashkil etdi²⁵. Kurtak paydo bo'lishidan to to'liq pishib

yetilishgacha bo'lgan davr tuproq-iqlim sharoitidan kelib chiqqan holda turlicha bo'lishi ma'lum bo'ldi.

O'sish kuchini tokning yer ustida o'suvchi bir yillik novdalarining uzunligi asosida aniqlanadi (1 va 2-jadvalga qarang).

2-jadval. Quritishga mo'ljallangan urug'siz uzum navlarining o'sish kuchi va novdalarining o'sish darajasi (2020-2022 yy uchun o'rtacha).

2-jadvalda keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, o'rganilgan navlar tupdagi kurtaklar soni, kurtaklar diametri, o'sish kuchi va kurtaklar pishish darajasi bilan sezilarli farq qiladi²⁹. O'sish kuchiga ko'ra, "Kishmish Botir" va "Kishmish Белый" navlari o'rtacha, "Kishmish Розовый", "Kishmish Чёрный", "Kishmish Sogdiana" navlari esa kuchli o'stiriladi.

Urug'siz uzum navlarining pishish muddatlari va hosildorlik ko'rsatkichlarini aniqlash uchun tadqiqot 2020 yildan 2022 yilgacha olib borildi³¹. Tadqiqot uchun uzumning urug'siz navlari "Kishmish Botir", "Kishmish Розовый", "Kishmish Чёрный", "Kishmish Белый" va "Kishmish Sogdiana" navlari tanlab olindi³². Kuzatuvlar 2020-2022 yillar mobaynida pishish muddatlari va hosildorlik ustida olib borildi³³. Hosildorlik miqdori tonna gektariga hisoblanib, navlardagi ko'rsatkichlarga solishtirildi.

Kuzatuvlar natijasida urug'siz uzumning "Kishmish Botir", "Kishmish Розовый", "Kishmish Чёрный", "Kishmish Белый" navlarida 2020 yilda avgust oyining ikkinchi dekadasida pishib yetilgan bo'lsa, "Kishmish Sogdiana" navi sentyabr oyining birinchi dekadasida pishib yetilganligi kuzatildi³⁵.

Navlarning hosildorligi ushbu yil uchun "Kishmish Botir" va "Kishmish Розовый" navlari o'rtacha 30 tonnadan, "Kishmish Чёрный" va "Kishmish Белый" navlari o'rtacha 20 tonnadan, "Kishmish Sogdiana" navi esa 15 tonnadan hosil bergan.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Azizov A.Sh., Yusupov N.Sh., Bozarova G.Sh. Uzumning Farg'ona viloyati Oltiariq tumanida yetishtirilgan "Husayni" (kelinbarmoq) navi mexanik, kimyoviy va fiziologik jarayonlarining saqlashdan oldingi va keyingi o'zgarishlarni nazorat qilish // "O'zbekiston qishloq va suv xo'jaligi" jurnalining "Agro ilm" ilmiy ilovasi. – Toshkent, 2022. – № 1 (79) son. – B. 28-29. (06.00.00, № 1).

2. Azizov A.Sh., Yusupov N.Sh., Dexkonova Sh.Yu. "Andijon qora" uzum navini sovutgichli omborlarda saqlashda kimyoviy tarkibining o'zgarishi // "Agro Inform" ilmiy-amaliy jurnali. – Toshkent, 2021. – Maxsus son (1). – B. 40-42. (06.00.00, №1).

3. Акбарова Н., Абдурахмонов О.Х., Одинаев М.И. Ресурсосберегающие способы сушки крупно ягодных изюмных сортов винограда и технологическое изучение сушеного ⁴³изюма⁴⁴ / Международная научно-практическая интернет-конференция на тему «Тенденции и перспективы развития науки и образования в условиях глобализации» (31 мая 2019 г.) – Переяслов-Хмельницкий, 2019 г. –

Выпуск. 47. – С. 747-251.

4. Buriyev X.Ch., Mirzayev M.M., Odinayev M.I. Mayizbop (germiyon) uzum navlarini quritish usullari. Tavsianoma – Toshkent, ToshDAU, 2018–18 b.

5. Buriyev X.Ch., Rizayev R.M. Meva-uzum mahsulotlarini biokimyosi va yetishtirish texnologiyasi. / “Mehnat” nashriyoti, Toshkent – 1996 y. B 115.

6. Воробьева, Т.Н. Эколого-токсикологическое совершенствование производства и хранения столового винограда (исследования, разработки) [Текст] / Т.Н. Воробьева, О.Н. Малахов - Краснодар: ООО «Просвещение-Юг», 2004. - 219 с.